

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHINING  
2021/2022 O'QUV YILI NAVBATDAN TASHQARI YIG'ILISHI  
BAYONI**

**2022-yil 20-iyun  
Katta yig'inlar zali**

**Buxoro shahri  
soat 14:00**

**Raislik qildi:**

O.X.Xamidov - kengash raisi, Buxoro davlat universiteti rektori, p.f.d., prof.

**Ishtirok etganlar:**

N.G.Dilova - kengash kotibi, p.f.f.d.,(PhD) dots.  
BuxDU kengashi a'zolari umumiy soni:73 nafar  
Qatnashdi: 69 nafar kengash a'zosi va taklif qilinganlar (ro'yxat asosida)

Buxoro davlat universiteti kengashining 2021-2022 o'quv yilining navbatdan tashqari yig'ilishini kengash raisi, universitet rektori, i.f.d., professor O.X. Xamidov olib berdi.

Oliy Attestatsiya komissiyasi qarori bilan tasdiqlangan ilmiy unvon va ilmiy daraja olgan professor-o'qituvchilar hamda turli tanlov g'oliblari taqdirlandi.

Kengash raisi bugungi navbatdan tashqari kengash yig'ilishida 73 nafar kengash a'zosidan 69 nafari ishtirok etayotganligini, 4 nafar kengash a'zosi sababli bugungi kengashda ishtirok etmayotganligini ma'lum qilib, yig'ilishni ochish to'g'risidagi masalani kengash a'zolari hukmiga havola etdi. Kengash a'zolari yig'ilishni ochiq deb qabul qilishni bir ovozdan ma'qullashdi.

Shundan so'ng, kengash kun tartibi o'qib eshittirildi.

**KUN TARTIBI:**

**I. 2021/2022 o'quv yilida Buxoro davlat universiteti jamoasi oldida turgan asosiy vazifalar va ularni ijro etish yo'nalishi bo'yicha:**

1. Universitetda yo'nalishlar bo'yicha ta'llim-tarbiya jarayonlarida olib borilayotgan ishlar tahlili, ularning bajarilish holati va galadagi vazifalar to'g'risida.

**Ma'ruzachi: universitet rektori, Kengash raisi O.X. Xamidov**

**II. Turli masalalar.**

2.1. O'zbekiston Respublikasi Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasiga talabgorlarning hujjatlarini respublika bosqichiga tavsiya etish to'g'risida.

2.2. Kafedra professor-o'qituvchilarini professor va dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida.

**KENGASH REGLAMENTI**

**Axborotlar uchun  
So'zga chiquvchilar uchun  
Ma'lumotlar uchun**

**10 daqiqa gacha  
3 daqiqa gacha  
3 daqiqa gacha**

**Ushbu kun tartibi va reglamenti xususida takliflaringiz bormi?**

**Ovozlar:** tasdiqlansin.

**RAIS:** kun tartibini tasdiqlash to'g'risida taklif bo'ldi. Uni ovozga qo'yaman.

Tarafdarlar 65 nafar  
Qarshilar – yo‘q.  
Betaraflar – yo‘q.

Demak, kun tartibi tasdiqlandi. Kun tartibidagi maslalar muhokamasiga o‘tamiz.

## KUN TARTIBI BO‘YICHA MASALALAR MUHOKAMASIGA O‘TILDI

**I. 2021/2022 o‘quv yilida Buxoro davlat universiteti jamoasi oldida turgan asosiy vazifalar va ularni ijro etish yo‘nalishi bo‘yicha:**

**1. Universitetda yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarida olib borilayotgan ishlar tahlili, ularning bajarilish holati va galdagi vazifalar to‘g‘risida.**

**ESHITILDI: O.X. Xamidov** (universitet rektori, kengash raisi) Universitet nufuzini yanada oshirish, ta’lim sifatini yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida davlat siyosati darajasida amalga oshirilayotgan va rejalashtirilgan ishlar, xorijiy hamkorlar bilan uchrashuvlar, galdagi vazifalar to‘g‘risida kengash a’zolariga tahliliy ma’lumotlar berdi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda universitetning ishtiroki hamda tashabbuskorligini oshirish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etish, davlat va jamiyat hayotida yuz berayotgan o‘zgarishlar hamda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning mazmuni va mohiyatini televideniye va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali keng aholi e’tiboriga yetkazilishini ta’minalash, hududlarni, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohalarni jadal rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va dasturlar loyihibarining keng muhokamasida faol ishtirok etish, innovatsion va texnologik g‘oyalarni har tomonlama rivojlantirish hamda qo’llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, professor-o‘qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish yuzasidan aniq choralar ishlab chiqish, yetakchi mutaxassislar, faol tadbirdorlar bilan dolzarb masalalarda seminar va davra suhabatlarini doimiy ravishda o‘tkazib borish, ularning faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarning yechimiga qaratilgan ilmiy-amaliy izlanishlarni olib borish, ularning ijrosini nazorat qilish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha vazifalar belgilab olindi.

Har bir bo‘lim va har bir yo‘nalish ma’sullariga tegishli vazifalar belgilab berildi. Universitetda ta’lim-tarbiya sifatini yanada oshirish, talabalarning dars jarayonlarigda faol ishtirokini to‘liq ta’minalash, borasidagi ishlarni tizimli yo‘lga qo‘yish, fakultet ma’sullarining e’tiborini kuchaytirish bo‘yicha tavsiyalar berildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. Universitet rektori, kengash raisi O.X. Xamidovning “Universitetda yo‘nalishlar bo‘yicha ta’lim-tarbiya jarayonlarida olib borilayotgan ishlar tahlili, ularning bajarilish holati va galdagi vazifalar to‘g‘risida” gi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Universitet nufuzini yanada oshirish, ta’lim sifatini yuqori darajaga ko‘tarish maqsadida belgilangan vazifalar barcha professor-o‘qituvchilarga yetkazilsin.

3. Mazkur qarolarning ijro nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor v.v.b. R.G‘. Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

---

## **II. O‘quv jarayoni yo‘nalishi bo‘yicha:**

### **2. Yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida**

**ESHITILDI: R.Jumayev** (O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor v.b.) kengash a’zolariga Yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida axborot berdi.

2022-yil 1-iyuldan Talabalar turar joylari, o‘quv binolari hamda auditoriyalar va h.k.larning yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik holatini o‘rganishlari kerak. O‘qishni ko‘chirish va magistratura bilan bog‘liq o‘zgarishlar bilan bog‘liq targ‘ibotni kuchaytirish, ta’lim shaklini o‘zgartirish bilan bog‘liq murojaatlarni ko‘rib chiqish (kunduzgidan sirtqi shaklga o‘tkazishni belgilangan tartibda amalga oshirish), akademik mobililikni qisman-qisman talabalarga hal qilib berish, ta’lim shakli bo‘yicha muammolarning oldini olish, O‘qishni ko‘chirish va magistratura bo‘yicha OAV ga chiqish, qisqa roliklar tayyorlash, fan dasturlari va majmualarni tubdan yangilash, 0,5 hissa, o‘rindosh va soatbay o‘qituvchilar ulushi ko‘payib ketmasligiga e’tibor qaratish, akademik qarzdorlar uchun o‘quv tashkil etish bo‘yicha amalag oshirilgan ishlarni nazorat qilish, talabalar va ota-onalarga o‘quv jarayoni to‘g‘risida yaxshilab tushuntirish ishlarni olib borish, o‘quv yiliga tayyorgarlik bo‘yicha belgilangan vazifalarni amalga oshirish, loyihamar va quyosh panellarni sotib olish bo‘yicha pul ajratish, asosiy vositalar va ta’mirlash ishlari vazirligini ruxsati bilan amalga oshirish kabi vazifalarni amalga oshirish zarurligi haqida gapirdi va bu masala bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi bilan kengash a’zolarini tanishtirdi. Барча маъсуллар ушбу белгиланган вазифаларга маъсулият билан қарашларини таъкидлади.

Ushbu masala bo‘yicha kengash raisi O.X. Xamidov so‘zga chiqib, o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi. Kengash a’zolarining takliflari eshitildi. Yuqorida fikrlarni qo‘llab-quvvatlagan holda

#### Kun tartibidagi masala yuzasidan **Kengash qaror qiladi:**

1. O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘. Jumayev “Yangi o‘quv yiliga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida”gi axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin
  2. Yo‘nalishlar bo‘yicha barcha ma‘sullarga belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash vazifasi yuklatilsin
  3. Mazkur qarorlarning ijro nazorati o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor R.G‘.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.
- 

### **III. Turli masalalar.**

#### **3.1. O‘zbekiston Respublikasi Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasiga talabgorlarning hujjatlarini respublika bosqichiga tavsiya etish to‘g‘risida.**

**Eshitildi:** U.M. Xalikova (ITI-TFTEB boshlig‘i) - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi 691-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtal maxsus talim vazirligining 2022-yil 5-maydagi 2/10-4/1-2497-sonli xatiga binoan Buxoro davlat universiteti rektorining 2022-yil 31-maydagi 263-U sonli buyrug‘i ishlab chiqildi va tanlov to‘g‘risida universitetning rasmiy sayt va kanallarida e’lonlar chiqarildi. Buyruqga asosan maxsus komissiya kengashi tashkil etildi.

Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini tayinlash tartibi to‘g‘risidagi nizom talablariga asosan talabgorlarning hujjatlari 19-may sanasidan 10-iyunga qadar maxsus komissiya tomonidan qabul qilindi. 2022-yilning 16-iyun kuni maxsus komissiya kengashi tomonidan tanloving saralash bosqichi o‘tkazildi. Talabgorlar Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini tayinlash bo‘yicha baholash mezonlari asosida baholandi va stipendiyaga da’vogar quyidagi nomzodlar saralandi.

T.r	<b>Talabaning I.F.SH</b>	<b>Ta’lim yo‘nalishi va kursi</b>	<b>Ishtirok etadigan yo‘nalish nomi</b>
1.	Sharipov Shahriyor Shuhrat o‘g‘li	Rangtasvir (dastgohli) ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi	Dastgohli rangtasvir
2.	Rahmatova Zuhro Shukur qizi	Xalq amaliy bezak san’ati va restavratsiya ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi	Amaliy san’at (turlari bo‘yicha)

3.	G'ulomov Shuhrat Shavkatovich	Xalq amaliy bezak san'ati va restavratsiya ta'lif yo'nalishi 2-bosqich talabasi	Amaliy san'at (turlari bo'yicha)
----	-------------------------------	---	----------------------------------

Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasini tayinlash to‘g‘risidagi nizomning 1-ilovasiga binoan 2022-yilning 25-iyun kuniga qadar nomzodlar haqidagi ma’lumotlar universitetning rasmiy veb-sayt va kanallarida e’lon qilinadi hamda nomzodlarning yig‘ma jildlari Oliy va o‘rta maxsus vazirligiga yetkazilishini ma’lum qiladi. 2022-yil 25-iyunga qadar nomzodlarning yig‘ma jildlari tanlovnning keyingi bosqichi uchun O‘zbekiston Badiiy akademiyasiga taqdim etilishi to‘g‘risida axborot berdi.

### **Kun tartibidagi masala yuzasidan Kengash qaror qiladi:**

1. Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i U.M. Xalikovaning “O‘zbekiston Respublikasi Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasiga talabgorlarning hujjatlarini respublika bosqichiga tavsiya etish to‘g‘risida”gi axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. G‘olib nomzodlarning hujjatlar yig‘ma jildlari 2022-yil 25-iyunga qadar belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasiga yetkazish Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo‘limi boshlig‘i U.M Xalikova zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur qarorlarning ijro nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

### **3.2. Fizika-matematika fakulteti Fizika kafedrasи dotsenti, t.f.n. I.I. Raxmatov rahbarligida ishlab chiqilgan “Svetoforlarni muqobil energiya manbalaridan (quyosh energiyasidan) foydalangan holda uzlusiz ishlashini ta‘minlash” loyihasi muhokamasi**

**ESHITILDI:** H.O. Jo‘rayev (Fizika-matematika fakulteti dekani) - kengash a’zolariga Fizika kafedrasи dotsenti, t.f.n. I.I. Raxmatov rahbarligida ishlab chiqilgan “Svetoforlarni muqobil energiya manbalaridan (quyosh energiyasidan) foydalangan holda uzlusiz ishlashini ta‘minlash” loyihasi to‘g‘risida ma’lumot berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev raisligida 2022-yil 10-iyun kuni o’tkazilgan iqtisodiyot tarmoqlari, aholi va ijtimoiy soha obyektlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig‘ilishida bugungi kunda yurtimizda 2-3 milliard kilovatt soat elektr energiyasiga qo‘sishma talab borligi hamda kelgusi besh yilda esa bu ehtiyoj 10 milliard kilovatt soatga oshishi kutilyotganligi ta’kidlanganligini qayd etdi. Bundan tashqari videoslektorda maktabgacha ta’lim muassasalari, mакtab, tibbiyat va boshqa ijtimoiy obyektlarda bosqichma-bosqich muqobil energiya uskunalari o‘rnatish vazifasi qo‘ylganligini ta’kidladi. Svetoforlarni quyosh energiyasiga o‘tkazish ularni 24 soat davomida uzlusiz energiya bilan ta‘minlash orqali yo‘l transport hodisalarining oldini olish, elektr energiyasini tejash imkoniyati berishini aytib o’tdi. U o‘z so‘zini yakunlab, so‘z navbatini loyiha rahbari Fizika kafedrasи dotsenti, t.f.n. I.I. Raxmatovga berdi.

Fizika kafedrasи dotsenti, t.f.n. I.I. Raxmatov so‘zga chiqib, kun tartibidagi masala ya’ni “Svetoforlarni muqobil energiya manbalaridan (quyosh energiyasidan) foydalangan holda uzlusiz ishlashini ta‘minlash” loyihasi to‘g‘risida batafsил ma’lumot berdi. Elektr energiyasidan uzilish bo‘lgan holatlarda ham svetofor uzlusiz ishlashini, bu orqali universitetga kelib ketayotgan talaba va professor o‘qituvchilarning xavfsizligi ta‘minlanishini ma’lum qildi. I.I. Raxmatov kengash a’zolaridan dastlabki bosqichda Buxoro shahri M. Iqbol ko‘chasi, Buxoro davlat universiteti bosh kirish darvozasi oldida joylashgan svetoforni to‘liq quyosh energiyasiga o‘tkazish rejalashtirilganligini, bu orqali universitet talabalari uchun amaliyat bazasi yaratilishi mumkinligini ma’lum qildi. Loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilgan taqdirda buyurtmalar asosida keyinchalik Buxoro viloyatida joylashgan boshqa svetoforlarni, tashkilotlar hamda aholi xonardonlarini quyosh energiyasiga o‘tkazish yo‘lga qo‘yilishini ta’kidladi.

So‘zga chiqqanlarning axboroti hamda fikr-mulohazalariga asoslanib, muhokamadagi masala bo‘yicha universitet kengashi

## **QAROR QILADI:**

1. Fizika-matematika fakulteti dekani H.O. Jo'rayev hamda loyiha rahbari I.I. Raxmatovlarning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
  2. Kun tartibidagi masala ya‘ni “Svetoforlarni muqobil energiya manbalaridan (quyosh energiyasidan) foydalangan holda uzluksiz ishlashini ta’minlash” loyihasi universitet innovatsion jamg’armasi mablag’lari hisobidan moliyalashtirilsin (mas’ul: Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, bosh hisobchi, Ilmiy-innovatsion ishlanmalarini tijoratlashtirish bo‘limi boshlig’i).
  3. Buxoro shahri M. Iqbol ko‘chasi, Buxoro davlat universiteti bosh kirish darvozasi oldida joylashgan svetoformi quyosh energiyasiga o‘tkazish jarayonida o‘rnataladigan uskuna va jihozlarni saqlash, o‘rnatilgandan so‘ng undan foydalanish va moddiy javobgarlik Fizika kafedrasiga yuklatilsin (mas’ul: Fizika-matematika fakulteti dekani, Fizika kafedrasи mudiri, loyiha rahbari).
  4. Loyer yakuni bo‘yicha loyiha rahbariga universitet kengashiga hisobot kiritish vazifasi yuklatilsin.
  5. Ushbu qarorning ijro nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.
- 

### **3.3. Kafedra professor-o‘qituvchilarini professor va dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to‘g’risida**

**3.3.1.** Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasи dotsenti Eshonqulov Hamza Ilhomovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g’risida.

**3.3.2.** Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrasи dotsenti Nurov Ziyodulla Saymurodovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g’risida.

**3.3.3.** Tuproqshunoslik kafedrasи mudiri Nazarova Sevara Mustaqimovnaning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g’risida.

**3.3.4.** Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti Musiqa ta’limi kafedrasи mudiri Shukurov Avaz Ro‘ziboyevich dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g’risida.

**3.3.5.** Buxoro davlat universitetining Psixologiya kafedrasи dotsenti Avezov Olmos Ravshanovichning dotsent ilmiy unvonini olish uchun attestatsiya hujjatlarini OAK ga taqdim etish to‘g’risida.

**ESHITILDI: N.G.Dilova** (Kengash kotibi, p.f.f.d., (Ph.D)): - Kengash a’zolariga yuqorida nomlari ko‘rsatilgan ilmiy unvonlarga talabgor professor o‘qituvchilarining O‘zR OAKga yuborish uchun tayyorlagan hujjatlari Nizom talablariga mos kelishini hamda nomzodning mazkur unvonga loyiqligini ta’kidlab, tavsiya beruvchi kafedra, fakultet va ilmiy texnik kengashlarning yig‘ilish bayonlaridan ko‘chirmalari mavjudligini ma’lum qildi. Talabgorlarning so‘nggi yillar mobaynida nashr etirgan ilmiy, o‘quv uslubiy ishlarini, shogirdlari haqidagi buyruqlari mavjudligini ta’kidlab o‘tdi.

Kengash raisi O.X. Xamidov mazkur lavozimga talabgoring nomzodini tavsiya berish uchun ochiq ovoz berish taklifini kiritdi. Kengash a’zolari ushbu taklifni bir ovozdan qo‘llab-quvvatlashdi.

Kengashda 73 nafar Kengash a’zosida 70 nafari ishtirot etdi.  
Ochiq ovoz berish natijasi quyidagicha:

Talabgorlar uchun 70 kishi "rozi", "qarshi" va betaraflar yo‘q.

Kengash raisi ushbu qarorini tasdiqlab berishni ovozga qo‘ydi, Kengash a’zolari sanoq komissiyasining mazkur qarorini bir ovozdan ma’qulladilar. Qarshilar va betaraflar bo‘lmadi.

Kun tartibidagi masala muhokama qilinib, kengash **qaror qiladi**:

1. Юқорида номлари келтирилган талабгорлар tegishli ilmiy unvonlarga tavsiya etilsin.
2. Talabgorlarning hujjatlarini 10 ish kunida O‘zR OAKga yetkazish vazifasi Kengash kotibi N.G.Dilova zimmasiga yuklatilsin.

**Kengash raisi:** Buxoro davlat universiteti kengashining **navbatdan tashqari yig‘ilishi kun tartibiga** kiritilgan barcha masalalar muhokama qilindi va kengash o‘z ishini yakunlaydi.

Kengash o‘z ishini tugatdi.

BuxDU kengashi raisi

BuxDU kengashi

O.X. Xamidov

N.G. Dilova

